



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI







SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRILISHI

*(2023-yilning yanvar oyi uchun
dastlabki ma'lumot)*

Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1 782,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 97,1 % ni tashkil etdi.






mlrd. so'm FHI, %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jomboy tumanida (1 733,8 ming so'm) hamda Samarqand shahrida (1 248,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2023-yil yanvar oyida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 1 734,0 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,3 % ni, tashkil etdi.



2023-yilning yanvar oyida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (39,7 %), Jomboy tumani (17,8 %), Urgut tumani (7,1 %), hamda Tayloq (6,6 %) tumanlari hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Tayloq tumanida (112,1 %), Jomboy tumanida (109,8 %) hamda Paxtachi tumanida (109,5 %) kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2023-yil yanvar oyi

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 61,2 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, Ishlab chiqarish 1,6 % ga, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 8,8 % ga hamda Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 56,5 % ga pasayish kuzatildi

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2022-yilning yanvar oyida 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali 12,4 % (9,6 %), o'rta-quyi texnologiyali 13,3 % (14,8 %) va quyi texnologiyalisi 71,4 % (69,7 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,8 % (2022-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 57,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi 8,9 % (2022-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 112,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 25,1 % (2022-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 77,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 46,2 % (2022-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar	2023-yil yanvar	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	14,2	9,7	- 4,5
Paxta tolasi, ming t.	6,9	6,3	- 0,6
Tozalangan paxta yog'i tonna.	502,0	1564,0	1062,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	64,0	0,0	- 64,0
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna	54,2	59,4	5,2
Uzum vinosi - ming litr	1,9	0,0	- 1,9
Aroq – ming litr 100 % spirt	0,8	0,0	- 0,8

2023-yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 59,4 tonna (2022-yilning yanvar oyiga nisbatan 9,6 % ga ko'paygan), 9,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (31,1 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar oyida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar oyida yirik korxonalar bo'yicha jami 138 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 2,2 marta ko'paygan.



2023-yil

138 dona

2023-yil

2,2 marta

2022-yil

64 dona

2022-yil

25,6 %

2021-yil

250 dona


2021-yil

91,9 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar oyida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar oyida 22 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,0 marta ga ko'paygan.



2023-yil

22 dona

2023-yil

22,0 marta

2022-yil

1 dona

2022-yil

16,7 %

2021-yil


6 dona

2021-yil

11,8 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 9,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 187,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 8,6 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 112,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 154,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar oyida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 83,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 1,7 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 57,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 31,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar oyida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 30,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 117,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 33,8 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 93,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 603,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 73,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 10,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 27,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 127,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,4 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 74,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 364,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 105,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 %, fizik hajm indeksi 89,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 54,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 94,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 41,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 7,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 131,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 %, fizik hajm indeksi 102,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 10,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 87,7 % .

Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 90,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 72,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 27,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 101,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 63,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 92,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,3 %, fizik hajm indeksi 154,7 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 182,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 43,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar	2023-yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	38 098,5	3 746,8	- 34 351,7
Issqlik energiyasi, ming, gkal	1 141 703,0	1 163 729,3	22 026,3



O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Elektroenergiya



Issqlik energiyasi



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar	2023-yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	3 200,4	3 183,0	- 17,4
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	7 949,3	7 982,8	33,5
Plastmassa chiqindilari, tonna	26,0	122,2	96,2


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % *



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar







Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm





Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 26,7 % shuningdek, Jomboy 12,5 %, Urgut 12,5 % ni hamda Toyloq tumanlarida 8,2 % ni tashkil etdi




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 238,1 ming so'm bo'lgan holda, Samarqand shahrida 455,7 ming so'mni, Jomboy tumanida 831,2 ming so'mni, Toyloq tumanida 451,4 ming so'mni va Samarqand tumanida 332,4 ming so'mni tashkil etdi.



Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 970,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 54,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



2023-yilning yanvar oyida viloyatda 478,0 milliard so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 6,6 % ga oshdi.

2022-yilning shu davriga nisbatan viloyat buyicha o'tacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Tayloq tumani (129,2 %), Jomboy tumani (125,7 %), Paxtachi tumani (114,6 %) hamda Oqdaryo tuman (114,0 %) korxonlari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 49,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 50,7 % ni tashkil etdi.



2022-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlarining umumiy hajmda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 31,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 68,6 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 106,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 99,2 % ni tashkil etdi.





Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 30,3 % ni, shuningdek, tumanlardan Jomboy 14,3 %, Urgut 14,0 %, hamda Samarqand tumani 7,4 % ni tashkil etdi.





Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi





Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 22,8 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 17,0 % ni, Toyloq tumani esa 15,2 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 8 295 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 731 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 20,9 %) Samarqand shahriga, 1 170 tasi (14,1 %) Urgut tumaniga, 773 tasi (9,3 %) Samarqand tumaniga, 502 tasi (6,1 %) Ishtixon tumaniga va 439 tasi (5,3 %) Kattaqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

57 ta

2023-yil yanvar

128 ta

2022-yil yanvar

143 ta

2021-yil yanvar



Jami faoliyat yuritayotgan

8 295 ta


2023-yil yanvar

8 074 ta

2022-yil yanvar

7 024 ta


2021-yil yanvar



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 669,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,6 % ni tashkil etdi.

yanvar
mlrd. soʻm



yanvar
ulushi, %

